

**APPLICATION OF STABLE COMPOUNDS IN THE NOVEL****"MIGHTY WAVE " BY SHARAF RASHIDOV****G'ayratova Gulzoda San'at qizi****Bukhara State Pedagogical Institute****Master of Arts in Uzbek language and literature**

**Annotation:** a unique type of speech activity is fiction. Linguistic analysis is important in the implementation of its linguistic units. Linguopoetics is divided into such parts as phonetic poetics, lexical poetics, syntactic poetics, depending on the study of the artistic-aesthetic function of which line unit of the language. This article explores the citelist and semantic features of language, the use of phrases in the language of a work of fiction, using the example of Sharaf Rashidov's novel "The Mighty wave".

**Keyword:** artistic features, language of a work of art, literary-critical analysis, linguistic analysis, Uzbek linguistics, phrase, stagnant compound.

**KIRISH:** O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o‘rganishga qaratilgan bir qancha kuzatishlar natijasida asosan lingvistik va lingvopoetik yo‘nalishlar ajralib turadi. Lingvistik yo‘nalish. Tilning muayyan tarixiy davridagi holati, ayni holatga mos bo‘lgan badiiy xususiyatlar, leksik, fonetik va Grammatik o‘zgarishlar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli holatlari ilmiy talqin etish maqadida o‘sha davrga oid adabiy-badiy asarlarning tili o‘rganiladi. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat assasiy dalil bo‘lib xizmat

qiladi. Til tarixini tasvirlash va tadqiq etishda bu qadim tarixga ega va qadimiy linvistik an'ana sifatida rivojlanib kelmoqda. <sup>1</sup>

Badiiylik san'atning barcha turlari uchun xosdir. So'z san'ati – adabiyot asosida ham badiiylik yotadi. Adabiy asarlarda hayot hodisalari o'z ko'rinishida emas, ijodkorning badiiy tili va badiiy mahorati orqali ifodalananadi. She'r, hikoya, qissa, roman, drama va shu kabi asarlarni lingvistik tahlil qilish, undagi so'zlarni tahlil qilish orqali yozuvchi mahorati va badiiy til darajasidan qanchalik foydalanganligini bilish mumkin.

**ASOSIY QISIM:** Badiiy asarni adabiy-tanqidiy tahlil qilishda nafaqat ilmiy adabiyot nuqtai nazaridan, balki tilshunoslik nuqtai nazaridan ham yondashuv zarurligi bir necha bor ta'kidlangan. Tilning estetik funksiyasining asosiylar namoyon bo'lishi badiiy asar matni bo'lganligi sababli, ushbu funksiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda adabiyotshunoslik nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika va lingvistik stilistika, tilshunoslik, tarix, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi sohalar birgalikda o'zaro ta'sir qiladi. Tilning estetik funksiyasi masalasi ikki asosiylar fan o'rtasidagi murakkab masaladir. O'zbek tilshunosligida ham badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda, asosan, ikkita yo'nalish yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin.

1. Lingvistik yo'nalish. Tilning muayyan tarixiy davrdagi holati ayni holatga xos bo'lgan xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgachaliklar, tilning hozirgi holati biian umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy – badiiy asarlarning tili o'rganiladi. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat material bo'lib xizmat qiladi. Til tarixini tasvirlash va tadqiq etishda bu yo'l eng qadimgi va mustahkam lingvistik

---

<sup>1</sup> Yo'ldoshev M., Isoqov M., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.– Toshkent:A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari.–Samarqand, 1999.

an'ana sifatida yashab kelmoqda. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalişda juda ko'p tadqiqotlar yaratilgan.

2. Lingvopoetik yo'naliş. Badiiy asar tilini lingvopoetik yo'nalişda o'rghanishning asosiy maqsadi esa bundan farq qiladi, albatta. Bu o'rinda masala tilning turli vazifalarga egaligiga borib taqaladi. Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to'rt-besh vazifasi qayd etiladi. 1. *Kommunikativ vazifa – tilning kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi ekanligi*. 2. *Ekspressiv vazifa – turli fikr va tuyg'ularni ifodalash vazifasi*. 3. *Konstruktiv vazifa – fikrlarni shakllantirish, tartibga solish va ifoda tarzini belgilash vazifasi*. 4. *Akkumulyativ vazifa – ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash vazifasi*. Badiiy asar tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni "ekspressiv vazifasi" atamasi bilan bir qatorda «tilning poetik vazifasi», «tilning badiiy vazifasi», «tilning estetik vazifasi» kabi atamalar ham qo'llanadi. Ammo shuni ham aytish kerakki, "tilning estetik vazifasi" atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o'z ichiga olgan holda ularni umumlashtira oladi. Lisoniy tahlil jarayonida badiiy asarga olib kirilgan vulgarizmlarni kimning (jinsi, ijtimoiy tabaqasi, mavqeい, yoshi kabilar) nutqida ishlatilayotganligiga qarab guruhlash, qanday vaziyatlarda va nima sababdan qo'llanilayotganligini hamda ularning leksik-semantik tarkibi, shevaga xoslanganligi kabilarni aniqlash lozim bo'ladi. Ushbu maqola davomida bir qator lisoniy tahlillarni barqaror birikmalar va metaforalar asosida o'r ganib chiqamiz.

Barqaror birikmalar «Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi». <sup>2</sup>Iboralar, maqolmatallar va hikmatli so'zlar barqaror birikmalar

<sup>2</sup> Yo'idoshev M., Isoqov M., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.– Toshkent:A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

hisoblanadi. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarning o'rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqe-a-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakatholatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Misol uchun:

Sada ham yaproqlarini shitirlatib, yoshlarning **quvonchiga sherik bo'lardi**.

Quvonchiga sherik bo'l- Xursandligidan oshib-toshib ketdi

Samovarchilarning **qo'li-qo'liga tegmas edi**, katta-kichik qozonlarda osh pishirardi.

Qo'li-qo'liga tegmoq- juda bandligi tufayli vaqt topolmaydi

Qizlar yigitlarga, yigitlar qizlarga havas bilan **ko'z qirlarini tashlab**, sirli imolar qilishar, bir-birlarini o'yinga tortishar edi.

Ko'z qirlarini tashlamoq- tez va sezilar - sezilmas qaramoq.

Nazarida lolalar unga "qo'y, xafa bo'lma menga qarasang **bahri diling ochiladi**" deb o'z bag'rige chorlagandek.

Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo'llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiat, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi ma'no nozikliklari bilan to'yinib boradi. Xalq iboraalarini qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xildir. Badiiy asarda qo'llanilgan iboralarni o'rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini (fondini) aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana shunday tahlilda

yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon bo'ladi:

Bahri diling ochilmoq - kayfiyati yaxshilanmoq

Bahorning **xayoli qochdi**.<sup>3</sup>

Xayoli qochmoq. – fikri tarqamoq

Albatta sen yengiltak bolalarga qoshilib, qizlarning **sha'niga dog'** **tushiradigan** ishga yo'l qo'ymaslinginga ishonaman

Dog' tushirmoq- isnod keltirmoq, badnom qilmoq, bulg'amoq kabi ma'nolarga ega.

Darhaqiqat, tilning obrazliligi uning ta'sirchanligida, rangdorligida, jilolarida ko'rindi. Haqiqatan ham badiiy asar tili kommunikatsiya vositasi emas, san'at asarining materiali sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy adabiyotda qo'llaniladigan barcha lingvistik vositalar til madaniyati talablariga javob bergen holda, badiiy nutqning estetik ko'lAMDORLIGINI oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

1. Yo'ldoshev M., Isoqov M., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.– Toshkent:A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
2. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari.–Samarqand, 1999.
3. Abdurahmanov X., Mahmudov N. So'z estetikasi.– Toshkent: O'qituvchi, 2002.
4. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san'atlar. – Toshkent: TDPU, 2001.
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
6. Yo'ldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish.–Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.

---

<sup>3</sup> Sharof Rashidov "Qudratli to'lqin" romani – O'QITUVCHI NASHIRIYOTI-1977 10-bet

7. Mamajanov A. Tekst lingvistikasi.–Toshkent, 1999.
8. Yo’ldoshev M. Cho’lpon so’zining sirlari.–Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
9. Umirqulov B. Poetik nutq leksikasi.–Toshkent: Fan, 1990.
10. Meliyev S. Konteksda so’z dinamikasi // O’zbek tili va adabiyoti, 1983.– №4.– . 50-54.
11. |Sharof Rashidov “Qudratli to’lqin” romani – O’QITUVCHI NASHIRIYOTI-1977